

TARAQQIYOT STRATEGIYASI DOIRASIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN VAZIFALAR

N.B. Nigmanova

TDPU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'lifi kafedrasi o'qituvchisi, dotsent

Jo'rayev Sulton Elmirza o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'lifi yo'nalishi 303-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqaolada Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim sifatini oshrishga
qaratilgan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Taraqqiyot strategiyasi, ta'lim, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun,
ta'lim tashkiloti.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan.
Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga
soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Bundan tashqari, Taraqqiyot strategiyasida ta'lim
sifatini oshrish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab olindi.

Xususan, 2022-yil 1-apreldan boshlab, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari
va mакtablarga farzandlarini yuborayotgan ota-onalarning oyiga 3 million so'mgacha
bo'lgan to'lovlari daromad solig'idan ozod etildi. Ikkita vazirlik zimmasiga, ya'ni
Moliya vazirligi (T.Ishmetov) va Davlat soliq qo'mitasi (Sh.Kudbiyev) bilan
birgalikda ikki oy muddatda Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli
o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini
Vazirlar Mahkamasiga kiritish haqida vazifa yuklatildi. Ta'lim sifatini yanada oshrish
bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qayta qabul qilindi. O'zbekiston
Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23- sentyabr kuni qabul
qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan
iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi,
turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi
qoidalar o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan
zarur bilim, malaka va ko'nikmalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan
hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga
qaratilgan.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta’lim, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Maktablarda o‘rta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida, darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat budgetidan 605 mlrd so‘m ajratildi. Bundan tashqari, 141 mingta o‘quv o‘rinlari yaratildi va ularning soni 2026-yil yakuniga qadar 6.4 mlngacha yetkazish rejalashtirilgan. Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi o‘quv o‘rinlarini yaratish va maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha choralarni ko‘rib borishi belgilab berildi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda bir qancha o‘zgarislar kiritildi. Qonunda dual ta’limga oid qoidalar belgilanib, u ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta’lim to‘g‘risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilmayillagini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minalashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonundan tubdan farq qiladi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’lum qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Hususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sون Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ta’lim yo‘nalishida murojaatnomada belgilangan vazifalar quyidagicha bo‘ldi:

-Maktab bitiruvchilarining oliv ta’limga qamrovi 25 foizdan 50-60 foizga etkaziladi;

-OTM davlat granti asosida qabul ikki barobar oshiriladi, shuningdek, qizlar uchun alohida davlat grantlari joriy etiladi;

-O‘qishga kirish soddalashtiriladi;

-Ona tili bo‘yicha bilimlarni baholashning milliy test tizimi paydo bo‘ladi;

-Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni ikki baravarga kamayadi;

-Oliv ta’lim o‘quv jarayonida kredit-modul tizimi joriy etiladi;

-Pedagogik ta’limning 6 ta yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati 3 yil etib belgilanadi;

-10 ta OTM o‘zini-o‘zi moliyalash tizimiga o‘tib, kamida 5 ta OTM transformasiya qilinadi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni bog‘chalarga qamrab olish ko‘rsatkichini 60 foizga etkazish ko‘zlanmoqda. Shu bilan birga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy qilish davom ettiriladi. Shu maqsadda, 130 mlrd so‘m mablag‘ ajratiladi. 2020-yilda 36 ta yangi maktab qurilib, 216 tasi kapital ta’mirdan chiqariladi. Ushbu ishlarga esa, 1,7 trln so‘m mablag‘ sarflanishi rejallashtirilgan. Joriy yilda 55 ta xususiy maktab tashkil etilishi, ularning respublikadagi umumiy soni 141taga etkazilishi bildirildi. Yuqori malakali o‘qituvchilar maoshini yanada oshirish masalasi davom etadi. Professional kasb-hunar ta’limda yangi tizim yo‘lga qo‘yiladi. 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etiladi. Milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi, natijada 9000 ga yaqin kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Xulosa o‘rnida, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbliji hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Taraqqiyot strategiyasi.
- 2.”Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun.
- 3.Fyut.uz.
- 4.staff.tiiame.uz.